



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 166 sahifa,
5-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimining psixologik xususiyatlari	10
<i>Abdulazizova Muslima, Abdurasulova Sevinch, Ikromova Aziza, Iskanderova Sayora</i>	
Oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va uning psixologik omillari.....	14
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Yo'lchiyeva Zarinabonu Sanjarali qizi</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni	18
<i>Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna, Mirzahamdov Shahriyor Botir o'g'li</i>	
O'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlashda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari	22
<i>Abduraximov Ziyodullo Xojakbar o'g'li, Tuxtapulatov Shahobiddin Nuriddinovich, Nasimov Ulug'bek Orif o'g'li</i>	
Ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishning integratsion shakllarini qo'llash metodikasi.....	28
<i>Allamova Shoxista Shavkat qizi</i>	
Surxon vohasida sog'liqni saqlash tizimi: muammolar va yechimlar (Sherobod tumani misolida, 1925–1945-yillar).....	33
<i>Allamurotov Asadbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish	37
<i>Axmedova Muxabbat Axmedovna</i>	
Ko'p o'zgaruvchili funktsiyaning oraliq qiymatlari haqidagi teoremlar va ularning isbotlari	42
<i>Boqiyev X. X., Muxtorova Sevinch Asad qizi, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarining huquqiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	46
<i>D. M. Xolnazarova</i>	
Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar: tajriba-sinov natijalari asosida	49
<i>Ibragimova Aziza Toshniyazovna</i>	
Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishda interaktiv integratsiyaning roli	55
<i>Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</i>	
Corrective Feedback in Foreign Language Learning Acts as a Vital Tool for Improving Accuracy With Research Indicating.....	58
<i>Kamalova Dilnoza Kurbanbayevna</i>	
Doping va halollik masalasi: sportdagi dolzarb muammo.....	64
<i>Kobilov Sobir Donakulovich</i>	
Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning teknik va taktik harakatlarini takomillashtirish usullari.....	69
<i>Muhtorov Abdusattor Abdupatto o'g'li</i>	
3-4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishning psixolingvistik asoslari	75
<i>Rasulova Xulkaroy Abduhalil qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modeli	80
<i>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanining zamonaviy metodik yondashuvlari va o'qitishning samaradorligi.....	84
<i>Sunnatillayeva Zarina Sulaymon qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish usullari	88
<i>Usmonov Salohiddin, Jo'rayeva Rayhona</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik kompetentligini rivojlantirish konsepsiyasi	94
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Zaripova Xolida Baxtiyor qizi</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol metodlari.....	100
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich</i>	



O'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalarining ilmiy-pedagogik mazmuni	103
<i>Sobirova Marjona Shavkat qizi</i>	
Taekvondochilarning musobaqa davrida hujumkorlik jihatlarini oshirish	110
<i>Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li</i>	
Gender yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	114
<i>Shokirova Hilola Abduraxmon qizi</i>	
Ingliz tilida tinglab tushunish malakasini rivojlantirishda raqamli ta'limning samaradorligi	120
<i>Aytimbetova U. T.</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish...	124
<i>Axmedova Nazokat Erkinovna</i>	
"Inklyuziv ta'lim. gospital pedagogika" fanida dasturiy-metodik ta'minotning mazmuniy-texnologik va monitoring-dagnostik komponentlari.....	128
<i>Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich</i>	
Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda 5–6-sinf o'quvchilari uchun samarali usullar	132
<i>Rajabova Zarafshon Davronovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishning innovatsion-metodik asoslari	135
<i>Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rganish mazmuni.....	140
<i>Usmonova Gulnoza Jaloliddin qizi</i>	
Образность современной медицинской терминологии	144
<i>Дулдулова Наргиза Ашимовна, Мирзаахмедова Нигора Ашимовна</i>	
Развитие исследовательской компетентности младших школьников посредством межпредметной проектной деятельности.....	148
<i>Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, Нормаматова Розия Уктам кизи</i>	
Психолого-педагогические риски цифровой образовательной среды	154
<i>Рузметова Хилола Абдушариповна, Моминова Мадина Шукурулла кизи</i>	
"TALIA": система контент-генерации на основе ИИ для подготовки учителей	158
<i>Хасанов Зафар Шавкат угли</i>	

INGLIZ TILIDA TINGLAB TUSHUNISH MALAKASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA'LIMNING SAMARADORLIGI

Aytimbetova U. T.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotning maqsadi B2 darajadagi mutaxassisligi ingliz tili bo'lgan talabalarning tinglab tushunish malakasini oshirishda raqamli ta'lim texnologiyalari va resurslarining samaradorligini aniqlashdan iborat. Raqamli ta'limda dars jarayonida onlayn platformalardan, internet resurslaridan foydalanish orqali B2 darajadagi talabalarning tinglab tushunish malakasini takomillashtirish ko'zda tutiladi. Tadqiqot yuzasidan talabalarning tinglab tushunish malakasini takomillashtirishda raqamli ta'limni qo'llash samaradorligi bo'yicha xorijiy va mahalliy ilmiy ishlar tahlil qilinadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi raqamli resurs sifatida YouTube sahifasidagi autentik materiallar hisoblangan BBC News, BBC Ideas va Stories kabi kanallardagi videolar orqali B2 darajadagi talabalarning tinglab tushunish malakasini takomillashtirishdan iborat. Tadqiqot natijasida mutaxassisligi ingliz tili bo'lgan B2 darajadagi talabalarning tinglab tushunish malakasini oshirishda raqamli autentik videolardan foydalanish ularga o'zlarini haqiqiy til muhitida o'rganayotganini his qilishga yordam berdi, shuningdek, sotsiologiyaviy va ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirdi.

Kalit so'zlar: tinglab tushunish malakasi, raqamli ta'lim, raqamli autentik resurslar, B2 darajadagi talabalar.

Abstract: The purpose of this study is to determine the effectiveness of digital educational technologies and resources in improving the listening comprehension skills of B2-level students majoring in English. Digital education involves improving the listening comprehension skills of B2-level students through the use of online platforms and Internet resources in the classroom. The study analyzes foreign and domestic scientific works on the effectiveness of using digital education in improving students' listening comprehension skills. The scientific novelty of the study is to improve the listening comprehension skills of B2-level students through videos on channels such as BBC News, BBC Ideas and Stories, which are considered authentic materials on the YouTube page, as a digital resource. As a result of the study, the use of digital authentic videos in improving the listening comprehension skills of B2-level students majoring in English allowed them to feel that they were learning in a real language environment, as well as develop their sociolinguistic and socio-cultural competencies.

Key words: listening comprehension skills, digital learning, digital authentic resources, B2-level students.

Аннотация: Цель данного исследования - определить эффективность цифровых образовательных технологий и ресурсов в улучшении навыков понимания на слух у студентов уровня B2, обучающихся английскому языку. Цифровое образование предполагает улучшение навыков понимания на слух у студентов уровня B2 посредством использования онлайн-платформ и интернет-ресурсов в учебном процессе. В исследовании анализируются зарубежные и отечественные научные работы об эффективности использования цифрового образования в улучшении навыков понимания на слух у студентов. Научная новизна исследования заключается в улучшении навыков понимания на слух у студентов уровня B2 с помощью видеороликов на каналах BBC News, BBC Ideas и Stories, которые рассматриваются как аутентичные материалы на странице YouTube в качестве цифрового ресурса. В результате исследования было установлено, что использование аутентичных цифровых видеороликов для улучшения навыков понимания на слух у студентов уровня B2, обучающихся английскому языку, позволило им почувствовать, что они учатся в реальной языковой среде, а также развить их социолингвистические и социокультурные компетенции.

Ключевые слова: навыки понимания на слух, цифровое обучение, аутентичные цифровые ресурсы, студенты уровня B2.

KIRISH

Bizning tadqiqotimiz dolzarbligi XXI asr texnologiyalar rivojlangan davrda talabalarning texnologiyaga bo'lgan qiziqishi, xohishi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularning ingliz tilida tinglab tushunishni o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish maqsadida ta'lim jara-



yoniga raqamli ta'lim texnologiyalari va resurslarini integratsiya qilish orqali ta'lim samaradorligini oshirish va zamonaviylashtirishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tinglab tushunish malakasini E.I. Passov tinglashni quyidagicha ta'riflaydi: "Tinglash - bu nutqni tushunish yoki quloq orqali tushunish uchun tinglash" [7].

N.D. Galskova va N.I. Gez kabi olimlarning ilmiy asarlarida tinglash tushunchasiga quyidagicha ta'rif keltiriladi: "Tinglash - bu og'zaki nutq xabarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni idrok etish, tushunish va faol qayta ishlash bilan bog'liq murakkab retseptiv aqliy-mnemik faoliyat" [6].

Xorijiy olimlardan M. Purdy tinglash jarayonini quyidagicha tushuntiradi: "Tinglash - bu diqqatni jamlash, idrok etish, talqin qilish, yodlash va ifodalangan (og'zaki va og'zaki bo'lmagan) so'rovlar va muammolar hamda tashqi omillarga javob berishning faol va dinamik jarayonidir" [3].

G. Buck esa tinglashni ma'lumotni qabul qiluvchining lingvistik va ekstralingvistik bilimlariga tayanib, audi-odagi ma'lumotni fahmlash, anglash jarayoni sifatida belgilaydi [1].

Tinglash tushunchasiga ko'plab ilmiy ta'riflar mavjud bo'lib, ularning ma'nolariga quyidagicha umumiy ta'rif berish mumkin: tinglash - bu audio ma'lumotlarni yoki og'zaki nutqni idrok etish, anglash, ma'nosini fahmlash, eng asosiysi, tinglovchining audio matni tushunishga bo'lgan intilishi, xohishi va istagi bo'lishidir.

Raqamli ta'lim texnologiyalari deganda umumiy ma'noda biz ta'lim jarayonida onlayn platformalardan, multimedia vositalari va internetga ulanish natijasida kirish mumkin bo'lgan resurslardan foydalanishni tushunishimiz mumkin. Xorijiy metodistlar fikricha, u interfaol, moslashuvchan, o'rganuvchilarga yo'naltirilgan va texnologiya bilan takomillashtirilgan ta'lim muhitlarini qo'llab-quvvatlashni anglatadi.

Xorijiy olimlardan Jorj Siemens e'tirof etishicha, raqamli ta'lim konnektivizm bilan chambarchas bog'liq hisoblanib, ta'lim jarayonida raqamli tarmoqlar, onlayn platformalar va raqamli vositalardan foydalangan holda bilim almashish orqali amalga oshiriladi. Muallifning fikricha, raqamli texnologiyalar o'quvchilarning internetdagi ma'lumotlardan cheksiz foydalanish va bilimlarni qabul qilish usullarini o'zgartirib yuboradi [4].

Mark Prenskiy raqamli ta'limni "raqamli mahalliy aholi" tushunchasi orqali tushuntirib, zamonaviy o'quvchilar texnologiya bilan o'ralgan holda o'sadi va shuning uchun texnologiya bilan integratsiyalashgan ta'lim yondashuvlarini talab qiladi [2].

E. Kiseleva raqamli ta'limni aniq va to'liq quyidagicha ifodalaydi: "Zamonaviy raqamli vositalardan foydalangan holda ta'lim faoliyatini boshqarish; ta'lim tashkilotida elektron axborot-ta'lim makonini yaratish; o'quv jarayoni dinamikasini, oraliq va yakuniy natijalarni rejalashtirish va qayd etish; raqamli vositalardan foydalangan holda individual va guruhli o'quv faoliyatini loyihalash qobiliyati; talabalarning o'quv yutuqlarini kuzatish va qayd etish qobiliyati. Umuman olganda, raqamli ta'lim ijtimoiy-iqtisodiy sohani modernizatsiya qilishning zamonaviy tendensiyalarini hisobga olgan holda ta'lim amaliyotining o'ziga xos innovatsion modelidir" [6].

Yuqoridagi tadqiqotchi va olimlarning fikrlaridan biz shunday xulosaga kelishimiz mumkin: raqamli ta'lim - kompyuterlar, smartfonlar kabi gadjetlar yordamida internet manbalariga, multimedia resurslariga, onlayn platformalarga kirish orqali o'quvchilarning ta'lim olish jarayonida samaradorlikni oshirish uchun xizmat qiladigan ta'lim tizimi sifatida tushuniladi.

Shunday qilib, demak, "raqamli ta'lim" tushunchasiga berilgan turli ta'riflarning mavjudligiga qaramasdan, ularning barchasi o'rganuvchilarning bilim, ko'nikma, qobiliyatlari va malakalarini shakllantirish va takomillashtirishda ta'lim maqsadlariga erishish uchun, shuningdek, o'qituvchilar tomonidan ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida raqamli resurslar va raqamli vositalardan (platformalar, ilovalar, veb-saytlardan) foydalanishni anglatadi ekan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bizning o'rganishimizda tinglab tushunishni o'qitishda raqamli ta'lim resursi sifatida YouTube platformasidagi ingliz tilini o'rganish uchun maxsus ishlab chiqilmagan, ya'ni autentik, ona tili ingliz tili bo'lgan til egalari tomonidan tayyorlangan BBC World Service, BBC Ideas, National Geographic nomli kanallarni saralab oldik. Shuni aytish joizki, ushbu kanallardagi videolarda ingliz tilida so'zlashuvchilar tomonidan global muammolarga yechimlar, kundalik hayotiy suhbatlar va eng so'nggi yangiliklar yoritiladi.

Bizning tadqiqotimizda ushbu yuqorida qayd qilingan kanallardan fan dasturidagi mavzularga mos videolarni topdik va ularga mashqlar to'plamini ishlab chiqib, LearningApps, Edpuzzle kabi tayyor raqamli vositalar yordamida mashqlarimizni interaktiv mashqlar ko'rinishiga olib keldik.


TAHLIL VA NATIJALAR

Gipotezaga ko'ra, raqamli ta'limning ingliz tilida tinglab tushunishni o'rgatish jarayoniga integratsiyalashuvi talabalarda nafaqat real vaziyatlardagi og'zaki nutqni tinglab tushunish va javob qaytarish malakasini, balki chet el madaniyatini milliy madaniyat bilan qiyoslash va taqqoslash, sotsiologik va ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarining, chet el nutqini tinglab tushunishga bo'lgan motivatsiyasining hamda xohish va intilishining oshishiga olib keldi.

LearningApps va Edpuzzle kabi raqamli vositalarning lingvodidaktik imkoniyatlarini o'rganib chiqib, ingliz tilida tinglab tushunish malakalarini takomillashtirish maqsadida "Xorijiy til va adabiyoti" yo'nalishi 1-kurs B2 darajadagi bakalavriat talabalaridan 40 nafar talaba qamrab olindi. Shundan 20 nafari nazorat guruhi, 20 nafari esa eksperiment guruhini tashkil etdi.

Eksperiment guruhi uchun fan dasturidagi mavzular bo'yicha tinglab tushunishni o'qitishga mo'ljallangan vazifalar to'plami ishlab chiqildi. 2025-o'quv yilining ikkinchi (bahorgi) semestrda eksperiment guruhi talabalariga haftasiga 2 marta 3 bosqichli video mashqlar qo'llanildi. Nazorat guruhi esa an'anaviy darslik audiolari bilan darslarni o'zlashtirdi. Semestr boshida talabalardan kirish testi, semestr yakunida esa chiqish testi olindi.

Semestr boshida va yakunida talabalarning tajriba oldi hamda tajribadan keyingi test natijalarini solishtirsak, raqamli ta'lim asosida talabalarning tinglab tushunish malakalari o'rtacha foiz ko'rsatkichining yuqorilganligini anglashimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm: Dastlabki va yakuniy testlarning o'rtacha ulushi.

So'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalar chet tilida tinglab tushunish malakalarini rivojlantirish uchun raqamli resurslar va raqamli vositalarning joriy etilishidan umumiy qoniqish hosil qiladilar. Ularning fikricha, raqamli vositalarning interaktivligi, moslashuvchanligi, dinamikligi va vizualligi talabalarning motivatsiyasi oshishiga sabab bo'lgan. Sinov natijalari esa tinglab tushunish malakasi yaxshi o'zlashtirilganligini ko'rsatadi (kirish testi natijalariga ko'ra nazorat guruhi tajriba boshida 66 %, tajriba yakunida esa 73 % ni tashkil etdi).

Eksperiment guruhi esa boshlang'ich ko'rsatkich bo'yicha 67 % ni, eksperiment oxirida esa 81 % ni tashkil etganligi, ya'ni 14 % ga yuqori natija qayd etilganligini ko'rishimiz mumkin). Bu til yo'nalishlarida ta'lim olayotgan B2 darajadagi talabalarning ingliz tilida tinglab tushunish malakalarini takomillashtirishda qo'llaniladigan raqamli ta'lim resurslari va vositalarining samaradorligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

"Xorijiy til va adabiyoti" yo'nalishi 1-kurs B2 darajadagi bakalavriat talabalarining tinglab tushunish malakalarini raqamli ta'lim asosida takomillashtirishda raqamli ta'limning moslashuvchanligi, ya'ni istalgan vaqtda va istalgan joyda topshiriqlarni bajarish imkoniyati, guruhda ham, individual tarzda ham ishlash imkoniyatlari, interaktivligi, dinamikligi, talabalar soni bo'yicha cheklovlarning yo'qligi, shuningdek, talabalarning lingvistik



birliklarni muayyan ijtimoiy-kommunikativ vaziyatlarda qo'llashi, chet el xalqining milliy-madaniy xususiyatlari, milliy madaniyati va urf-odatlaridan xabardor bo'lishi kabi muhim pedagogik jihatlarga ega ekanligi haqida xulosaga kelamiz.

Biz raqamli ta'limdan foydalanish orqali original topshiriqlarni ishlab chiqdik. Bu, bizning fikrimizcha, bunday turdagi interaktiv topshiriq va mashqlar, shuningdek, autentik video resurslari tufayli talabalarning tinglab tushunishga bo'lgan faolligi, ishtiyoqi va motivatsiyasini oshirishga imkon beradi. Ishlab chiqilgan kompleks topshiriqlarni sinovdan o'tkazish va talabalarni o'rganish oliy ta'limdagi ingliz tili darslarida raqamli ta'limni joriy etish samaradorligi to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Yuqorida belgilangan muammolar bo'yicha keyingi tadqiqot istiqbollari quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: talabalarning ingliz tilida tinglab tushunish malakalarini takomillashtirish jarayoniga sun'iy intellektni integratsiyalash; turli yoshdagi va turli ta'lim tizimlarida raqamli ta'limdan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish; ayniqsa, imkoniyati cheklangan talabalar uchun raqamli ta'limni keng joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Buck, G. (2001). *Assessing listening*. Cambridge University Press
2. Prensky, M. (2001). Digital natives, digital immigrants. *On the Horizon*, 9(5), 1-6.
3. Purdy, M. (1991). What is listening? In D. Borisoff & M. Purdy (Eds.), *Listening in everyday life: A personal and professional approach* (pp. 3-19). University Press of America.
4. Siemens, G. (2005). Connectivism: A learning theory for the digital age. *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*, 2 (1), 3-10.
5. Гальскова, Н.Д., & Гез, Н.И. (2004). *Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика*. Академия.
6. Киселева, Е.В. (2022). Теоретические подходы к определению понятия "цифровое образование". *Вестник Майкопского государственного технологического университета*, 14 (1), 65-71.
7. Пассов, Е. И. (1989). *Основы коммуникативной методики обучения иноязычному говорению*. Просвещение.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.